BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (2-SINF MISOLIDA)

Ibrohimova Naima Isroil qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
+998907910825

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23763453

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf, xususan, 2-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darslarida berilgan matnlar ustida ishlashning zamonaviy va kreativ usullari haqida so‘z boradi. Maqolada o‘quvchilarni an’anaviy o‘qitishning bir xillik qolipidan chiqargan holatda, matnni anglab o‘qish, mustaqil va mantiqiy fikrlashini o‘stirish g‘oyalari ilgari surilgan. 2-sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matnlar ustida ishlashning turli zamonaviy yo‘llari va metodlarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, matn, darslik, ta’limda zamonaviylik, ko‘nikma, tanqidiy fikrlash, samaradorlik, kreativ yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные и креативные методы работы с текстами на уроках чтения для учащихся начальной школы, в частности, 2-х классов. В статье выдвигаются идеи развития у учащихся навыков понимания прочитанного, самостоятельного и логического мышления, а также устранения монотонности традиционного обучения. Даны практические рекомендации по использованию различных современных способов и методов работы с текстами с учетом возрастных и психологических особенностей второклассников.

Ключевые слова: чтение, текст, учебник, современность в образовании, навыки, критическое мышление, эффективность, креативный подход.

Abstract: This article discusses modern and creative methods of working on texts given in reading literacy lessons for primary school students, in particular, 2nd graders. The article puts forward the ideas of developing students' reading comprehension, independent and logical thinking, while removing them from the monotony of traditional teaching. Practical recommendations are given on the use of various modern ways and methods of working on texts, taking into account the age and psychological characteristics of 2nd graders.

Keywords: reading literacy, text, textbook, modernity in education, skills, critical thinking, efficiency, creative approach.

KIRISH

Yurtimizda boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarga berilayotgan ta’lim mazmunini zamonaviy o‘qitish usullari va kreativ metodlar vositasida takomillashtirish hamda yangilanib borayotgan jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim tizimiga noan’anaviy va zamonaviy yondashish zamon talabi bo‘lib kelmoqda.

Hozirgi kadrlar raqobatbardoshligi kuchaygan bir zamonda yosh avlodni mustaqil va zamonaviy fikrlaydigan qilib tarbiyalash oliy maqsadlardan biri bo‘lib qolmoqda . Buning poydevorida esa o‘z ustida ishlaydigan, yangilik yaratishdan to'xtamaydigan pedagoglar mehnati turibdi. Hozirda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yangilangan va avvalgisidan

ko‘ra yaxshiroq ishlangan darsliklar joriy etilgan. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshlang‘ich sinflar uchun yaratilgan mutlaqo yangi va zamonaviy darsliklar ko‘rgazmasi bilan tanishganda shunday degan edi:

<<Bugungi ta’lim qirq yildan keyin biz haqimizda so‘zlaydi. Biz darsliklarni shunday yaratishimiz kerakki, unda o‘qigan bola nafaqat bilim olsin, balki mantiqiy, mustaqil va tahliliy fikrlashni o‘rgansin.>>

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Boshlang‘ich ta’lim sohasida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarining roli haqida so‘z borganda shularni aytib o‘tish joizki, bu fanda ko‘proq matnlar, hikoyalar va ertaklar bilan ishlanadi. Bu matn va hikoyalar mazmunini anglash va o‘quvchilarga buni hayotga bog‘lagan holda tushuntirish mahoratli o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablardan biridir. Matnni o‘rganish davomida o‘quvchilar bilan savol-javoblar o‘tkazish, qiziqarli metodlar va texnologiyalardan foydalangan holda ularning iqtidor doirasidan kelib chiqib kasb-hunarga muhabbat ham uyg‘otish lozim.

2-sinf o‘qish savodxonligi darsligidagi <<Maktablar qanday paydo bo‘lgan?>> nomli o‘qish uchun berilgan matnni namuna qilib olamiz va uni PIRLS xalqaro baholash dasturi orqali ko‘rib chiqamiz.

<<Maktablar qadim zamonda, odamlar ilm olish va bilim ulashish muhimligini tushunib yetgan davrda vujudga kelgan. Avval bolalar uyda ta’lim olishgan. Ota-onalar o‘z farzandlariga o‘qish va yozishni o‘rgatishgan, qiziqarli ertaklar aytib berishgan.>>

Endi ushbu matnni PIRLS xalqaro dasturiga slogan holda ko‘rib chiqamiz.

PIRLS test va savollari:

1-daraja: (oson)

Savol: Maktablar paydo bo‘lishidan avval bolalar qayerda o‘qishgan?

A) Bog‘chada
B) Uyda*
C) Ko‘chada

2-daraja: (o‘rtacha)

Savol: Matnga ko‘ra, ota-onalar bolalariga qanday ertaklarni aytib berishgan?

A) Zerikarli
B) Qayg‘uli
C) Qiziqarli*

3-daraja: Matnni tushunish va fikrlash (mantiqiy)

Savol: Odamlar nima uchun maktablarni tashkil qilishgan?

Javob: Odamlar ilm olish va uni boshqalarga ham ulashish uchun maktablarni tashkil etganlar. Bu yerda o‘quvchi o‘z so‘zi bilan <<bilim olish uchun>> deb qo‘ysa ham javob to‘g‘ri hisoblanadi.

4-daraja: Tanqidiy baholash: (ijodiy)

Savol: Sizningcha, maktabda o‘qish yaxshimi yoki uyda ota-onadan o‘rgangan yaxshimi? Nima uchun?

Javob: O‘quvchi erkin fikr bildiradi. Masalan, <<maktabda o‘qish yaxshi, chunki u yerda do‘stlarim bor>>

Javoblarni quyidagi baholash me’zonlari orqali baholab chiqamiz.

- To‘liq javob – 2 ball;
- Qisman javob – 1 ball;
- Noto‘g‘ri/javobsiz – 0 ball.

1-2-savollarda B va C javoblar belgilansa har biriga 2 balldan beriladi.
3-savolda (mantiqiy) matndagi sababni qisqa bolsa ham aniq yozsa <<bilim olish uchun>> deb – 2 ball;
<<yozishni o‘rganish uchun>> deb chala yozsa – 1 ball;
Matnga aloqasi bo‘lmagan gap yozsa yoki umuman hech narsa yozmasa – 0 ball.
4-savolda (ijodiy) o‘z fikrini tanlab uni asoslab bera olsa – 2 ball;
<<maktab yaxshi>> deb chala fikr bildirsa – 1 ball;
Savolni tushunmay boshqa narsa yozsa yoki hech narsa yozmasa – 0 ball.

Ushbu baholash me’zonlari orqali o‘quvchilarning matn mazmuni haqida qay darajada ma’lumotga ega bo‘lganliklarini aniqlab olsak bo‘ladi.

Bundan tashqari o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga, matnni tushunib tahlil qilishga qaratilgan <<mantiqiy xulosalar chiqarish>> - <<inference>> metodi ham mavjud. Bunda o‘quvchilar matnda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yozilmagan, lekin gaplar orasidagi ma’nodan kelib chiqadigan yashirin g‘oyalarni topadilar. Masalan, o‘quvchi matnning ma’lum qismini o‘qib chiqib, <<maktablarda bolalar nima uchun sinflarga bo‘lib o‘qitiladi?>> degan savolni tuzadi va unga mantiqan tafakkur qilgan holda javob izlaydi.

Boshlang‘ich sinf, xususan, 2-sinf o‘quvchilari bilan badiiy asar yoki badiiy matnni tahlil qilish, undagi qahramonlarni o‘rganish oddiy an’anaviy darsdan mutlaq farq qiladi. Bunday darslarda o‘quvchilar o‘qituvchining aytganlarini bajaradigan obyektlikdan dars jarayonida faol va mustaqil harakatlanuvchi subyektlarga aylanadilar. Ular oldilariga qo‘yilgan murakkab masalalar, savollar, topshiriqlar ustida o‘ylanadilar, izlanadilar, qayta-qayta badiiy matnga murojaat qiladilar. Bir-birlari bilan fikr almashadilar, badiiy asar va undagi obrazlarni har xil rakurslarda tahlilga tortadilar. Bu jarayonda o‘z-o‘zidan, o‘quvchida badiiy matnga nisbatan ijodiy munosabat shakllanadi.

Ushbu metod va dasturlarni o‘qish savodxonligi darslarida keng qo‘llash orqali o‘quvchilar mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish va matn haqidagi tushunchalarini hayotiy voqealarga bog‘lagan holda o‘rganish imkoniyati qo‘lga kiritiladi.

Xulosa.

Ushbu maqola oxirida fikrlardan kelib chiqib, quyidagilarni xulosa sifatida olishimiz mumkin:

O‘quvchi matnni metodlar va texnologiyalar orqali qanchalik chuqur tahlil qilsa, shunchalik matnning ichiga kirib boradi, undagi qahramonlarning tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini his qilishni o‘rganadi. Oddiy an’anaviy dars orqali o‘quvchiga bularni his qildirib bo‘lmaydi. Albatta, buning uchun kreativ fikrlash, darsga yangiliklar olib kirish, turli baholash dasturlaridan foydalanish va integratsiyalashgan dars tashkil etish lozim. Bu yo‘lda o‘qituvchi-pedagoglarimizdan yuksak mahorat va ko‘nikma, o‘z ustida doimiy ishlash va shaxsiy rivojlanishni kutib qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning zamonaviy darsliklar ko‘rgazmasiga tashrifi (President.uz rasmiy sayti, 29-dekabr 2022-yil)

2. 2-sinf o‘qish savodxonligi darsligi 6-dars 20-sahifa
3. Q. Husanboyeva , M. Hazratqulov, Sh. Jamoldinova Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi <<Innovatsiya-Ziyo>> 2020
4. **PIRLS tadqiqotining metodologiyasi va materiallari:** PIRLS 2021 Assessment Frameworks
5. https://slib.uz/article/23457?utm_source=chatgpt.com
PIRLS orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini yuksaltirish” – ilmiy maqola